

KORRUPSIYANING BOSHLANISH NUQTALARI HAMDA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

НАЧАЛЬНЫЕ ТОЧКИ КОРРУПЦИИ, А ТАКЖЕ СПОСОБЫ УСТРАНЕНИЯ

THE STARTING POINTS OF CORRUPTION AS WELL AS ITS WAYS TO ELIMINATE

*Guliston Davlat Pedagogika Instituti
musiqa ta'lim talabasi Ismailova Sevinch
ismoilovasevinch718@gmail.com +99833-035-01-05
Ilmiy rahbar: Yulyaxshiyev Sherali Narzullayevich
Guliston Davlat Pedagogika instituti o'qituvchi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiyaning boshlanish nuqtalarini, qay tarzda vujudga kelishi hamda korrupsiyaning turlari har hil bo'lishi natijasida yurtning rivojlanmaslikka va ortda qolishiga ta'sir etishi, yoshlar ongining zaharlanishi natijasida korrupsiyani ko'paytirish uchun foydalanilishi bu juda ham ayanchli holatligi hamda ushbu korrupsiya rivojlanmasligi uchun uni bartaraf etish yo'llari sababli ko'plab islohotlar amalga oshirilayotganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, islohot yechimlar, rivojlanishi, vujudga kelishi, bartaraf etish yo'llari, islohotlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются исходные точки коррупции, как она возникает и как влияет на неразвитость и отсталость страны в результате различных видов коррупции, используется для увеличения коррупции в результате отравления умов молодежи.

Ключевые слова: коррупция, реформаторские решения, развитие, возникновение, пути преодоления, реформы.

Abstract: This article will talk about the starting points of corruption, in what way it arises and how the types of corruption affect the non-development and Lagging of the country as a result of all kinds of corruption, the use of the youth mind to increase corruption as a result of poisoning it is a very sad situation and many reforms are being carried out due to ways.

Key words: corruption, reform solutions, development, emergence, ways of elimination, reforms.

Korrupsiya -jamiyat rivojiga tahdid soluvchi asosiy tahdidlardan biri bo'lib qolmoqda. U davlat va jamiyatning rivojlanishi hamda taraqqiy etishiga o'zining salbiy

ta'sirini ko'rsatuvchi illatlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunga kelib, jahonning deyarli barcha davlatlarida korrupsiya muammsh masalasi xalqaro miqyosda davlatlar va hukumatlararo transmilliy jinoyat sifatida keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biri bo'lib hisoblanib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qarori qabul qilingan. Ushbu qarorga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini reyting baholash quyidagi beshta yo'nalish bo'yicha belgilangan indikatorlar asosida amalga oshirilishi belgilangan. Ayni damda har bitta davlatda korrupsiya avj olgandir. U rivojlanib borar ekan yurt, davlat nafaqat xalq ham rivojlanmaydi. Chunki xalq bo'lsa davlat, yurt barpo etiladi xalq bo'lmasa davlat ham yurt ham bo'lmaydi. Har bitta davlat rivojlanishi uchun korrupsiyani bartaraf etish yo'llarini izlashi va unga doir ko'plab islohotlar amalga oshirilishi zarurdir chunki korrupsiya bor joyda o'sish bo'lmaydi desak adashmagan bo'lamiz. Chunki korrupsiya shaffoflikni yo'qotadi. Shaffoflik bo'lmagan joyda esa o'sish va rivojlanish sur'ati pastlab ketadi, ko'zbo'yamachilik avj oladi. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, tarraqiyot yo'lga g'ov bo'ladi. Shu bilan birgalikda ta'lim tizimida ham korrupsiyani avj olishi natijasida, kelajakda jamiyatimiz uchun munosib kadr bo'lib xizmat qilish istagi bilan bilim olayotgan yoshlarimizning ongida ham o'ziga bo'lgan ishonch, intilish, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi asta-sekinlik bilan so'nib boradi hamda jamiyatimizda raqobatbardosh kadrlar safiga kira olmaydi. Shu bilan bir qatorda o'zining kelajakdagi o'rnini topish yo'lidagi to'siqlarga bardosh bera olmay taslim bo'lishiga zamin yaratib beradi. Har bir yurtda, davlatda korrupsiya bo'lar ekan u davlatda rivojlanish ham o'sish ham bo'lmaydi. Shuningdek, korrupsiyaning boshlanish nuqtalarini topib uni shakllanib bormasligiga yo'l qo'ymaslik kerak, shundagina korrupsiyani boshlanish nuqtasini oldinini olgan bo'lamiz.

Hozirgi kunda ushbu korrupsiyani bartaraf etish uchun islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida korrupsiyaga barham berish masalasiga alohida to'xtalib, bu illatga qarshi kurashishga barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, umuman, har bir fuqaro safarbar etilishi maqsadga muvofiq ekani ta'kidadi. Korrupsiya dunyoda hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biri bo'lib, bu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy taraqqiyotiga eng katta zarar yetkazishi bilan birga inson huquq va erkinliklarining buzilishiga olib keladi. Shuning uchun unga qarshi kurashish muhim ahamiyatga ega. Unga qarshi kurashish doimiy ravishda zarur bo'lgan ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

Shulardan kelib chiqib, mamlakatimizda 2017-yil 3-yanvarda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, unga qarshi kurashishning huquqiy

mexanizmi yaratildi. Uning asosiy maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Mazkur Qonunning 3-moddasida asosiy tushunchalar berilgan, ya'ni korrupsiya shaxsning o'zi egallab turgan lavozimdan shaxsiy manfaatlarini yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida, qonunga xilof ravishda foydalanishi yoki shunday harakatni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir.

Shuningdek, mazkur Qonunning 5-moddasida esa korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, davlat va jamiyatning barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini hamda bunga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari ko'rish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning qat'iy belgilanganligi prinsipini ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi qarori bilan "2017-2018-yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi" qabul qilindi.

An'ana asosida bir qator qonun loyihalari ishlab chiqilib, amaldagilari esa inventarizatsiyadan o'tkazildi. Umuman olganda, so'nggi yillarda qilingan ishlar tahlili aholining ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilganini ko'rsatadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi huzurida Jamoatchilik kengashi tashkil etilib, uning tarkibiga yoshlar, xususan, Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti vakillari jalb etilishi ham yaxshi natija berishi, shubhasiz. Chunki, yoshlarimiz vatanparvarligi, mamlakat taraqqiyotiga befarq emasligi, fidoyiligi bilan ajralib turadi. Ularda hayotbaxsh g'oyalar, tashabbuslar ham ko'p. Bulardan: davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi hamda amaliyotga tatbiq etilganligi, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi; davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatni ko'rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi; xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-tamoyillaridan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi; korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarining o'z samarasini ko'rsatib kelmoqda. Albatta, barcha sohalarda korrupsiyaga qarshi kurashish, uning oqibatlarini o'rganish va oldini olish masalasi eng dolzarb

vazifalardan biri. Yoshlar uchun esa eng muhim yo'nalishlardan biri, bu – ta'lim sohasidagi va ishga kirish bosqichida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiya turlariga qarshi kurashish.

Xulosa qilib shuni aytamanki, korrupsiyaning boshlanish nuqtalarini sezgandan so'ng uni bartaraf etish yo'llarini topish yoki kerakli joyga murojaat qilib ogohlantirish lozim. Ushbu korrupsiya har bir davlatda, millatda bo'lganligi sababli birgalikda yengish uchun shart-sharoitlar yaratib kelinmoqda. Korrupsiya yoshlar uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi chunki oldinga qarab intilishmaydilar, harakatdan to'xtaydilar, hamma ishni osonlik yo'li bilan hal qiladilar va shuning natijasida davlat ham rivojlanmasdan qoloq bo'lib boshqa davlatlardan pasayib o'z reytingini yo'qota boshlaydi. Shuning uchun hozirgi kunda korrupsiyani rivojlantirmaslik uchun shaffoflik, halollik hamda ochiqlik yo'lga qo'yilgan. Korrupsiyaning boshqa turlarini bartaraf etish maqsadida ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlar o'z samarasini ko'rsatib kelmoqda. Hozirgi kundagi ulg'ayib kelayotgan yosh kelajak avlodga hamda yoshlarga korrupsiyaga qarshi kurashish uchun ko'plab targ'ibotlar o'tkazilishi va hamda uning natijasida salbiy oqibatlariga olib kelishi haqida ham islohotlar olib borilishi zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 07.12.2021 yildagi PQ-34-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.11.2023 yildagi PF-200-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.04.2025 yildagi PF-71-son.
4. **O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi huzuridagi jamoatchilik kengashi to'g'risidagi nizom.**
5. E-ANTICOR.UZ